



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 448 sahifa,
1-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
<i>Usmonova Muattar Bahadirjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni	14
<i>Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari	17
<i>Dilsora Shodmonova</i>	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях	24
<i>Истамова Нигора Азимжановна</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
<i>Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi</i>	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
<i>Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich</i>	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
<i>Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li</i>	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
<i>Artikov Xayrulla Baxtiyarovich</i>	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline	44
<i>Lola Mannobova</i>	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries	48
<i>Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları	51
<i>Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</i>	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari	55
<i>Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi</i>	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni	59
<i>Abdunazarov Abdumutal Olimovich</i>	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari	64
<i>Alimova Gulrux Farhod qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	70
<i>Axtamova Mohinur O'tkir qizi</i>	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni	74
<i>Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'Iqinova Muxlisaxon Jamshid qizi</i>	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida)	78
<i>G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi</i>	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi	82
<i>Hamraqulova Durdona Dilshod qizi</i>	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi	87
<i>Hikmatova Yulduz Nuritdinovna</i>	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari...	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli.....	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi	153
<i>Rahimova Sarvinov Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	276
<i>Xidirov Faxriddin Fozilovich</i>	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды	280
<i>Рахмонова Нилуфар Уткир кизи</i>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda leksik-grammatik komponentni diagnostika qilish metodlari	284
<i>Mamatkulova Lobar Tolibjonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalari asosida bolalarning ta'limiy faoliyatini rivojlantirish.....	288
<i>Norqulova Ma'mura Husniddin qizi</i>	
Nutqdagi fonetik kamchiliklarning o'quv faoliyati va savodxonlikka ta'siri	293
<i>Xikmatova Saboxat Xusniddinovna</i>	
Oliy ta'limda sog'lom psixologik muhitni shakllantirish omillari	296
<i>Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi</i>	
Social-Psychological Factors of Increasing the Quality of Life	300
<i>Abdullaeva Ranazhon Matyakubovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantiruvchi zamonaviy o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy-metodik asoslari.....	307
<i>Abdumalikova Gulchiroy</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishning didaktik imkoniyatlari.....	311
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili darslarida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	316
<i>Azimova Maftuna Azizbekovna</i>	
Talabalarda lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik asoslari	321
<i>Eshbekova Dilnoza Ibraimovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida moslashuvchanlikning psixologik xususiyatlari	324
<i>Fayziyeva Gulhayo Erkin qizi, Fatullayeva Manzura Idillo qizi</i>	
Naim Karimov talqinida Oybek badiiy tafakkurining biografik manbalari	327
<i>Jonpo'lotova Gulshoda Qobil qizi</i>	
Kurashchilarning kuch sifatini rivojlantirishda maxsus mashqlardan foydalanish	334
<i>Muxamedjanov Umidulla Fayzullayevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy idealni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	337
<i>Saidova Malika Erkin qizi</i>	
Yengil atletika texnikalarini pedagogik mahoratni rivojlantirish metodikalarida qo'llash	340
<i>Sattarov Qarshiboy Narqulovich, Mirzayev Karim Mamarasul o'g'li</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida shug'ullanuvchilarning tezkorlik va chidamlilik sifatlarini rivojlantirishning innovatsion metodikasi	344
<i>Sattarov Sardor Sunnatulloevich</i>	
Innovatsion rivojlanish asosida uzluksiz ta'limning integratsiyalashgan mazmunini modellashtirish metodologiyasi.....	348
<i>Umarov Lutfillo Murodilloyevich</i>	
Milliy maktablarda rus tilini o'qitishda raqamli ta'lim resurslari va veb-saytlardan foydalanish metodikasi....	352
<i>Xolmirzayeva Munira Jahongir qizi</i>	
Педагогические основы повышения профессиональной компетентности будущих преподавателей физического воспитания высших образовательных учреждений	357
<i>Мавлянов Бахром Сангирович</i>	
Раннее выявление и мониторинг кожных заболеваний с помощью искусственного интеллекта: интегрированные архитектуры, алгоритмы и перспективы клинического внедрения	361
<i>Э. Ш. Назирова, Ш. Б. Абдусаломова</i>	
Ingliz tilida modallikni ifodalash vositalari va ularning semantik xususiyatlari	368
<i>Abdujalilova Sarvinov Rashid qizi, Abdurazzokova Mehriniso Azimjon qizi</i>	

Ona va farzand munosabatlarida etnomadaniy omillarning psixologik xususiyatlari.....	373
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchilarning gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlarning o'rni	378
<i>Abdurahmanov Muhammadjon G'ulomjonovich</i>	
Aralash ta'lim texnologiyalari asosida ta'lim jarayonini loyihalashning ilmiy-metodik asoslari.....	381
<i>Alibayev Sobir Xolboyevich</i>	
Formativ baholash jarayonidan foydalanib o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish	386
<i>Amirkulova Dilnoza Zokir qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy-pedagogi faoliyatga tayyorlash tendensiyalari	389
<i>Artikbayeva Aziza Abror qizi</i>	
The Role of National Values in English and Uzbek Literature: a Comparative Study	392
<i>Ataniyazova Sohiba Xamidovna</i>	
Frans Kafka ijodining psixologik talqini.....	396
<i>Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich</i>	
Development of a Set of Health-Promoting Exercises for Middle-Aged Men 50-60 Years Old, Taking Into Account Physical Training	400
<i>Dehqonova Mahmuda Ortiqovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarni jismoniy rivojlantirish metodikalari	404
<i>Imomov Asliddin Abdurazzoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich</i>	
Современные мобильные технологии: эволюция и развитие.....	408
<i>Жураев Илхом Исхокович</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kongruentlik kompetensiyasini rivojlantirishning mazmuni	413
<i>Kamalova Dilobar Tairovna</i>	
Methodology for Developing Communicative Competence of Future Teachers Based on Multimedia Tools.....	418
<i>Kudratova Sultonposhsha Otabek qizi, Khalilova Mukhlisa Ulug'bek qizi, Ziyotova Umida Otabek qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida ona tili darslarida matn bilan ishlashni tashkil etish.....	423
<i>Erdanova Zamira Olimovna</i>	
Milliy sport turlari orqali talaba yoshlar bilan interfaol dars jarayonini tashkil etish.....	426
<i>Mirzayev Az'am Xudaynazarovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich</i>	
Pedagogika bitiruvchilarining kasbiy o'zini o'zi rivojlantirishga asoslangan barqaror bandligini ta'minlash modeli.....	430
<i>Omonova Mohiniso Maqsud qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda fanlararo integratsiyani sun'iy intellekt asosida takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari.....	435
<i>Panjiyev Jo'raqul Menglimamat o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'limda web-kvest topshiriqlardan foydalanish.....	440
<i>Saidova Gavhar Ergashovna, Itolmasova Oygul Sabritdinovna</i>	
Developing Communicative Competence in English Language Education Through Modern Interactive Methods.....	443
<i>Sativoldieva Shoxsanam Utkir qizi</i>	



BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KONGRUENTLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI

Kamalova Dilobar Tairovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarda kongruentlik kompetensiyasini rivojlantirishning mazmuni, pedagogik mohiyati hamda uni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar tahlil qilingan. Kongruentlik kompetensiyasi shaxsning ichki dunyosi, kasbiy faoliyati va kommunikativ xulq-atvoridagi uyg'unlikni ta'minlovchi muhim pedagogik sifat sifatida asoslab berilgan. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarda kongruentlik kompetensiyasini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari, mezonlari va ko'rsatkichlari aniqlashtirilgan. Maqolada integrativ yondashuv, refleksiv faoliyat, interfaol metodlar hamda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarning shaxsiy va kasbiy kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kongruentlik kompetensiyasi, bo'lajak o'qituvchi, integrativ yondashuv, pedagogik kompetentlik, refleksiya, kommunikativ madaniyat, interfaol metodlar, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik hamkorlik, oliy ta'lim.

Abstract: This article analyzes the content, pedagogical essence, and methodological approaches to developing congruence competence in future teachers of higher education institutions. Congruence competence is substantiated as an important pedagogical quality that ensures harmony between an individual's inner world, professional activity, and communicative behavior. The structural components, criteria, and indicators of congruence competence development in future teachers are also identified. The article highlights opportunities for enhancing students' personal and professional competence through an integrative approach, reflective activities, interactive methods, and the use of digital educational technologies.

Key words: congruence competence, future teacher, integrative approach, pedagogical competence, reflection, communicative culture, interactive methods, professional training, pedagogical cooperation, higher education.

Аннотация: В данной статье проанализированы содержание, педагогическая сущность и методические подходы к развитию конгруэнтной компетентности у будущих педагогов высших образовательных учреждений. Конгруэнтная компетентность обоснована как важное педагогическое качество, обеспечивающее гармонию внутреннего мира личности, профессиональной деятельности и коммуникативного поведения. Также определены структурные компоненты, критерии и показатели развития конгруэнтной компетентности у будущих учителей. В статье раскрыты возможности развития личностной и профессиональной компетентности студентов посредством интегративного подхода, рефлексивной деятельности, интерактивных методов и использования цифровых образовательных технологий.

Ключевые слова: конгруэнтная компетентность, будущий учитель, интегративный подход, педагогическая компетентность, рефлексия, коммуникативная культура, интерактивные методы, профессиональная подготовка, педагогическое сотрудничество, высшее образование.

KIRISH

Bo'lajak o'qituvchilarda kongruentlik kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri pedagogik faoliyat jarayonida ularning ichki kasbiy pozitsiyasi bilan tashqi pedagogik xatti-harakatlari o'rtasidagi uyg'unlik darajasi hisoblanadi. Aynan ta'lim jarayonida bo'lajak pedagogning kasbiy madaniyati, shaxsiy qadriyatlarini, emotsional barqarorligi, talabalar bilan muloqot uslubi, pedagogik vaziyatlarga munosabati hamda kasbga bo'lgan motivatsiyasi namoyon bo'ladi. Shu jihatdan kongruentlik kompetensiyasi bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini baholovchi integrativ ko'rsatkich sifatida namoyon bo'ladi. Chunki pedagogik faoliyat samaradorligi nafaqat o'zlashtirilgan nazariy bilimlarga, balki o'qituvchining ichki ishonchi, samimiyligi, refleksivligi va kasbiy qadriyatlarining amaliy faoliyat bilan uyg'unlashuviga ham bog'liqdir.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash o'ziga xos ko'p qirrali pedagogik jarayon bo'lib, u talabalarga mutaxassislik bo'yicha bilim berish bilan bir qatorda ularning pedagogik tafakkuri, kasbiy

identifikatsiyasi, shaxsiy sifatlari va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Mazkur jarayonda bo'lajak pedagogning ongi, dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, pedagogik munosabat madaniyati hamda o'zini boshqarish ko'nikmalariga maqsadli ta'sir ko'rsatish orqali ularda kasbiy faoliyatga nisbatan ongli munosabat shakllantiriladi.

Ayniqsa, pedagogik faoliyatda autentiklik, samimiylik, emotsional moslashuvchanlik va o'zini anglash kabi sifatlarni rivojlantirish kongruentlik kompetensiyasining muhim tarkibiy komponentlari hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, bo'lajak o'qituvchilarda kongruentlik kompetensiyasini rivojlantirish masalasiga alohida pedagogik muammo sifatida yondashish zarur. Chunki oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan talaba pedagogik faoliyatga oid nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni egallash bilan birga, kelgusida ushbu bilimlarni boshqalarga samarali yetkazish, pedagogik jarayonni mustaqil tashkil etish va boshqarish kompetensiyalarini ham rivojlantirishi lozim bo'ladi. Bu esa bo'lajak o'qituvchidan o'z kasbiy bilimlari, ichki qadriyatlari va pedagogik faoliyati o'rtasida uyg'unlikni ta'minlashni talab etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

60110400 – Boshlang'ich ta'lim yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi", "Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani", "Xalqaro dasturlar asosida o'qitishni tashkil etish" kabi fanlarning o'qitilishi bo'lajak o'qituvchilarda kongruentlik kompetensiyasini rivojlantirish uchun muhim didaktik imkoniyatlarni yaratadi. Mazkur fanlarni o'zlashtirish jarayonida talabalar faqat pedagogik nazariy bilimlarni egallabgina qolmay, balki refleksiv tahlil, pedagogik muloqot, konfliktlarni boshqarish, emotsional nazorat, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va kasbiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini ham shakllantiradilar.

Mazkur jarayon zamonaviy pedagogik ta'limning integrativ xarakteri, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv hamda kasbiy kompetensiyalarni kompleks shakllantirish tamoyillari bilan uzviy bog'liqdir.

Kongruentlik kompetensiyasi pedagogik faoliyatda o'qituvchining ichki "Men-konsepsiyasi", tashqi xulq-atvori va kasbiy faoliyati o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlovchi muhim sifat sifatida talqin etiladi. U o'qituvchining emotsional barqarorligi, refleksiv tafakkuri, o'zini anglash darajasi hamda pedagogik vaziyatlarda tabiiy va samimiy munosabat bildirish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, yuqorida qayd etilgan fanlar mazmuni bo'lajak o'qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishini uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

"Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" fani bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik faoliyatning nazariy asoslarini shakllantiradi, ta'lim jarayonining maqsadlari, vazifalari, tamoyillari va metodlarini chuqur anglashga imkon beradi. Mazkur fan doirasida o'qituvchi shaxsining kasbiy fazilatlarini, pedagogik etikasi hamda kommunikativ madaniyati kabi komponentlar tahlil qilinadi. Aynan shu jihatlar kongruentlik kompetensiyasining kognitiv va aksiologik asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Chunki o'qituvchi pedagogik jarayonni chuqur anglagan holda o'z xulq-atvorini ongli ravishda boshqaradi, bu esa ichki va tashqi uyg'unlikni ta'minlaydi.

"Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani" esa bo'lajak o'qituvchilarda tarbiyaviy jarayonni tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu fan doirasida shaxsning axloqiy, ma'naviy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar o'rganiladi. Tarbiyaviy faoliyatning mohiyati o'qituvchining shaxsiy namuna bo'lishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu holat kongruentlik kompetensiyasining amaliy jihatini kuchaytiradi. O'qituvchi o'zining ichki qadriyatlari va tashqi pedagogik xulqini uyg'unlashtira olsagina, o'qituvchilarda ishonch, hurmat va ijobiy motivatsiya shakllanadi. Shu tariqa, tarbiya fani kongruentlikning refleksiv va emotsional komponentlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

"Xalqaro dasturlar asosida o'qitishni tashkil etish" fani esa zamonaviy global ta'lim standartlari, xalqaro baholash tizimlari va kompetensiyaviy yondashuvlarni o'zlashtirishga qaratilgan. Ushbu fan bo'lajak o'qituvchilarda moslashuvchanlik, innovatsion fikrlash va ochiq pedagogik tizimlarda samarali ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Xalqaro ta'lim tajribalarini o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi o'z pedagogik pozitsiyasini qayta ko'rib chiqadi va uni zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtiradi. Bu esa kongruentlik kompetensiyasining professional-identifikatsion jihatini kuchaytiradi, ya'ni o'qituvchining kasbiy "Men"i barqaror va moslashuvchan bo'lishini ta'minlaydi. Mazkur uch fan o'rtasidagi integratsiya bo'lajak o'qituvchilarda nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va shaxsiy sifatlarning yaxlit tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'qituvchining o'z-o'zini anglash, refleksiya qilish va o'z faoliyatini tahlil etish qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada kongruentlik kompetensiyasi faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki amaliy pedagogik faoliyatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Didaktik jihatdan mazkur fanlarning imkoniyatlari quyidagilarda ko'zga tashlanadi:

birinchidan, muammoli ta'lim va interfaol metodlardan foydalanish orqali o'qituvchining mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi;



ikkinchidan, refleksiv yondashuv asosida o'z faoliyatini baholash va takomillashtirish ko'nikmalari shakllanadi;

uchinchidan, kommunikativ mashg'ulotlar orqali emotsional intellekt va pedagogik muloqot madaniyati mustahkamlanadi.

Shuningdek, ushbu fanlar doirasida tashkil etiladigan amaliy mashg'ulotlar, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, keys-stadilar, rolli o'yinlar va loyiha asosida o'qitish kabi metodlar kongruentlik kompetensiyasining barcha komponentlarini kompleks rivojlantirishga imkon beradi. Bunda o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'z faoliyatini doimiy ravishda tahlil qiluvchi va takomillashtiruvchi refleksiv subyekt sifatida shakllanadi.

Ta'lim jarayonida qonuniyatlar, metodlar, vositalar, ta'lim shakllari va mazmunini o'zlashtirish bilan bir qatorda, bo'lajak pedagoglar o'qituvchi shaxsiga xos hujjat yuritish, darsni loyihalash, pedagogik diagnostika, o'quvchilar bilan samarali munosabat o'rnatish kabi amaliy kompetensiyalarni ham rivojlantiradilar. Ayniqsa, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari orqali pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, muammoli topshiriqlarni bajarish, refleksiv mashqlar va treninglarda ishtirok etish ularda kongruentlik kompetensiyasining amaliy namoyon bo'lishiga xizmat qiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarda kongruentlik kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni ularning pedagogik faoliyatga tayyorlanishining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, mazkur jarayonda nafaqat kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, balki pedagog shaxsining axloqiy-irodaviy, kommunikativ va refleksiv sifatlari ham tizimli ravishda shakllantiriladi. Chunki pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatga erishish o'qituvchining nazariy tayyorgarligi bilan bir qatorda uning axloq-odobi, yurish-turishi, jamoa orasida o'zini tuta bilishi, kasbiy etika me'yorlariga rioya qilishi, hamkasblar va ta'lim oluvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish olishi hamda pedagogik vaziyatlarda ichki barqarorlikni saqlay bilishiga ham bevosita bog'liqdir. Mazkur sifatlarning esa kongruentlik kompetensiyasining asosiy indikatorlari sifatida namoyon bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo'lajak o'qituvchilarda kongruentlik kompetensiyasini rivojlantirishning mazmuni, avvalo, ularda pedagogik faoliyatning ijtimoiy ahamiyati, pedagog kasbining mohiyati hamda ta'lim-tarbiya jarayonidagi mas'uliyatni chuqur anglashni shakllantirishga qaratiladi. Pedagogika tarixi fanini o'rganish bo'lajak pedagoglarga ta'lim va tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, pedagogik g'oyalar evolyutsiyasi, asosiy qonuniyatlar va tamoyillarning shakllanish bosqichlari haqida yaxlit tasavvur beradi, ularda kasbiy identifikatsiya, pedagogik qadriyatlariga sodiqlik hamda kasbiy faoliyatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi^[6].

Kongruentlik kompetensiyasining mazmuniy tarkibida pedagogika nazariyasi va didaktika bo'yicha bilimlar alohida o'rin egallaydi. Bo'lajak o'qituvchi pedagogika nazariyasi, didaktik tamoyillar, ta'lim metodlari va shakllari, pedagogik jarayon qonuniyatlari hamda kategorik apparatni chuqur o'zlashtirish orqali o'zining kasbiy faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Aynan nazariy tayyorgarlik pedagogning ichki kasbiy e'tiqodi bilan amaliy faoliyati o'rtasida uyg'unlikni ta'minlashga xizmat qiladi, chunki pedagogik faoliyatda bilim va harakat birligi, ya'ni nazariy bilimlarning amaliyotda adekvat namoyon bo'lishi kongruentlikning muhim ko'rinishidir.

Shuningdek, bo'lajak o'qituvchi umumiy pedagogika, metodika va mutaxassislik fanlarini chuqur egallashi orqali kasbiy kompetentligining mazmuniy asoslarini mustahkamlaydi. O'z fanini yetarli darajada bilmagan pedagogda ichki ishonch, pedagogik mustaqillik va kommunikativ erkinlik shakllanmaydi, uning pedagogik faoliyatida ichki noaniqlik va tashqi xatti-harakatlar o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli kongruentlik kompetensiyasini rivojlantirishda mutaxassislik bilimlarini chuqurlashtirish, ularni didaktik jihatdan qayta ishlash va ta'lim oluvchilarga mos shaklda yetkazish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur hisoblanadi.

Mazkur kompetensiyaning rivojlanishida bo'lajak pedagogning yosh fiziologiyasi, psixologiya, pedagogik psixologiya va muloqot psixologiyasi fanlari integratsiyasi bo'yicha bilimlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ta'lim jarayonida o'quvchilarning yosh, individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olish, ularning hissiy holatini tushunish, pedagogik ta'sir vositalarini to'g'ri tanlash hamda emotsional muvozanatni saqlash o'qituvchidan yuqori darajadagi refleksivlik va emotsional kompetentlikni talab qiladi. Bu jihatlar kongruentlik kompetensiyasining psixologik komponentlarini tashkil etadi.

Zamonaviy pedagogika va psixologiyada kongruentlik shaxsning ichki tajribasi, uni anglash jarayoni hamda tashqi ifodasi o'rtasidagi muvofiqlik darajasi sifatida talqin etiladi. U insonning his-tuyg'ulari, fikrlari va xulq-atvori o'zaro uyg'un holda namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi. Mazkur fenomen shaxs tajribasi va uning ongda aks etishi o'rtasidagi muvofiqlikni ifodalab, pedagogik faoliyatda samimiylilik, ochiqlik va barqaror kasbiy pozitsiyani ta'minlaydi. Kongruentlik yuqori darajada shakllangan holatda shaxs tomonidan uzatiladigan xabar, real boshdan kechirilayotgan tajriba va uning anglanishi bir-biriga yaqin bo'ladi. Bunday holatda insonning o'zini o'zi baholashi tashqi muhit va kuzatuvchilar bahosi bilan hamohanglik kasb etadi.

Pedagogik nuqtai nazardan mazkur holat o'qituvchining talabalar bilan ishonchli muloqot o'rnatishi, axloqiy barqarorlikni saqlashi hamda ta'lim jarayonida sog'lom psixologik muhit yaratishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Rivojlanish psixologiyasi nuqtai nazaridan, kichik yoshdagi bolalarda kongruentlik tabiiy ravishda yuqori darajada namoyon bo'ladi. Ular o'z his-tuyg'ularini kechiktirmasdan va filtrlamasdan ifoda etadilar. Masalan, bola ochlik, quvonch yoki g'azab holatini butun emotsional mavjudoti bilan his qilib, uni ochiq namoyon qiladi. Bu esa emotsional holatlarning tez yakunlanishi va keyingi vaziyatlarga ichki psixologik zo'riqishsiz kirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayonida bolalardagi tabiiy kongruentlikni saqlash va rivojlantirish etik tarbiyaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Kongruentlik g'oyasi Sharq falsafasi, ayniqsa dzen-budizm ta'limotidagi hayotiy tamoyillar bilan ham uyg'unlikka ega: "Och bo'lsam – yeman; charchasam – dam olaman; uxlagim kelsa – uxlayman". Bu qarash inson ehtiyojlari, anglash jarayoni va harakatlari o'rtasidagi tabiiy muvofiqlikni anglatadi.

Nekongruentlik esa shaxsning ichki tajribasi, uni anglashi va tashqi ifodasi o'rtasidagi nomutanosiblik holatidir. Masalan, tashqi ko'rinishi va nutq belgilaridan g'azablangani sezilib turgan inson o'zini "xotirjamman" deb ta'riflashi yoki ijtimoiy muhitda quvnoq ko'rinishga harakat qilib, aslida ichki yolg'izlik va zerikishni his qilishi nekongruentlikka misol bo'ladi. Pedagogik amaliyotda bunday holatlar o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi ishonchli munosabatlar hamda samarali muloqotga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Anglash va tajriba o'rtasidagi nekongruentlik ko'pincha repressiya (bosib chiqarish) mexanizmi orqali namoyon bo'ladi. Bunda shaxs o'z his-tuyg'ularini, ehtiyojlarini yoki harakat motivlarini to'liq anglamaydi. Pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida bunday holatlarni bartaraf etish muhim ahamiyatga ega, chunki pedagogning o'z his-tuyg'ularini anglashi va boshqara bilishi uning kasbiy samaradorligini belgilaydi. Anglash bilan tashqi ifoda o'rtasidagi nekongruentlik esa shaxsning haqiqiy his-tuyg'ularini yashirishi yoki ifoda etmasligi bilan bog'liq bo'lib, ko'pincha nosamimiylik sifatida qabul qilinadi. Bu holat odatda o'z-o'zini anglash darajasining pastligi, qo'rquv, ijtimoiy bosim yoki stereotiplar ta'sirida shakllanadi. Pedagogik ta'lim jarayonida refleksiya, emotsional intellektni rivojlantirish, etik tarbiya va shaxsiy o'sishga yo'naltirilgan interfaol metodlar orqali mazkur holatlarni kamaytirish mumkin.

Nekongruentlik subyektiv jihatdan ichki zo'riqish, xavotir, ruhiy noqulaylik va emotsional charchoq sifatida namoyon bo'ladi. Og'ir holatlarda esa tashqi reallik bilan subyektiv tajriba o'rtasidagi farq shunchalik kuchayadiki, shaxsning ijtimoiy va kasbiy faoliyat yuritish qobiliyati izdan chiqishi mumkin. Shu sababli pedagogik tayyorgarlik jarayonida kongruentlikni rivojlantirish bo'lajak o'qituvchilarning psixologik barqarorligi va kasbiy yetukligini ta'minlovchi muhim omil sifatida qaraladi. Bo'lajak o'qituvchining kongruentlik kompetensiyasi oliy ta'lim muassasasidagi kasbiy tayyorgarlik jarayonida, xususan, o'quv rejalar va fan dasturlarida nazarda tutilgan nazariy, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari orqali izchil rivojlantiriladi.

Seminar va amaliy mashg'ulotlar davomida pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, muammoli topshiriqlarni bajarish, mikrodarslar tashkil etish, pedagogik refleksiya va o'zini baholash faoliyatlari bo'lajak pedagogning ichki kasbiy pozitsiyasi bilan tashqi pedagogik xulq-atvori o'rtasidagi uyg'unlikni shakllantiradi. Bunday faoliyatlar bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy ishonch, o'zini boshqarish, kommunikativ ochiqlik va autentiklikni rivojlantiradi^[4].

Bo'lajak o'qituvchi faoliyatida pedagogik amaliyot kongruentlik kompetensiyasini rivojlantirishning muhim bosqichi hisoblanadi. Amaliyot jarayonida bo'lajak pedagog real pedagog muhitga kirishib, nazariy bilimlarni amaliyotga transfer qiladi, pedagogik vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qiladi, ta'lim oluvchilar bilan muloqot o'rnatadi hamda pedagogik refleksiya olib borish tajribasini egallaydi. Bu jarayon unda ichki kasbiy qadriyatlar, pedagogik maqsadlar va real faoliyat o'rtasidagi moslikni shakllantirishga xizmat qiladi. Bo'lajak o'qituvchilarda kongruentlik kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni ularning kasbiy shakllanishi, pedagogik mahoratni egalashi hamda pedagogik jamoaga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki pedagogik faoliyatda kongruentlik o'qituvchining ichki kasbiy qadriyatlari, shaxsiy pozitsiyasi, axloqiy tamoyillari va tashqi pedagogik faoliyati o'rtasidagi uyg'unlikni ifodalaydi. Bo'lajak pedagogning pedagogik jamoaga kirishib ketishi, unda o'z o'rnini topa olishi, kasbiy munosabatlar tizimida faol subyekt sifatida shakllanishi ko'p jihatdan uning o'z ustida ishlashi, reflektiv tahlil olib borishi, mavjud kamchiliklarini anglashi va ularni bartaraf etishga qaratilgan ichki motivatsiyasiga bog'liq bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchilarda kongruentlik kompetensiyasini rivojlantirish mazmunida o'z-o'zini tarbiyalash, kasbiy refleksiya va uzluksiz o'zini rivojlantirish alohida o'rin egallaydi. Pedagogik faoliyatning samaradorligi o'qituvchining doimiy ravishda o'z kasbiy salohiyatini takomillashtirib borishi, malakasini oshirishi, pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirishi va shaxsiy-kasbiy rivojlanish strategiyasini shakllantirishiga bevosita bog'liqdir. Shu jihatdan o'z-o'zini boshqarish, o'zini baholash, kasbiy faoliyat natijalarini reflektiv tahlil qilish hamda o'z faoliyatiga tanqidiy yondashish kongruentlik kompetensiyasining muhim tarkibiy elementlari sifatida qaraladi. Mazkur kompetensiyaning aksiologik asosini milliy va umuminsoniy qadriyatlar tashkil etadi.

Bo'lajak pedagogda ma'naviy-axloqiy pozitsiyaning shakllanishi, milliy meros, tarixiy qadriyatlar va pedagogik an'analarga hurmat ruhida tarbiyalanishi uning kasbiy kongruentligini ta'minlovchi muhim omillardan



biridir. Pedagog shaxsining samimiyligi, adolatligi, insonparvarligi, vatanparvarligi, mehr-shafqati, mas'uliyatliligi va pedagogik etikaga rioya qilishi uning ichki e'tiqodi bilan tashqi faoliyati o'rtasidagi moslikni belgilaydi. Shu bois bo'lajak o'qituvchilarda kongruentlik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida milliy ma'naviy meros, axloqiy qadriyatlar va pedagogik odob me'yorlariga tayangan holda shaxsiy sifatlarni shakllantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy odob ko'nikmalarini shakllantirish kongruentlik kompetensiyasining kommunikativ va ijtimoiy komponentlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagogik faoliyatda samarali muloqot, jamoada ishlash, hamkorlikka tayyorlik, o'zaro hurmat va mas'uliyat hissining rivojlanganligi pedagogning kasbiy faoliyatidagi uyg'unlikni ta'minlaydi. Shu ma'noda, oliy ta'lim muassasasida tashkil etiladigan jamoaviy faoliyat, talabalar o'zini o'zi boshqarish tizimi, ijodiy guruhlar, kengashlar va turli tashkiliy birliklar bo'lajak pedagoglarda liderlik, tashabbuskorlik, moslashuvchanlik va jamoa bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantiradi. Bu esa kongruentlik kompetensiyasining ijtimoiy-amaliy ko'rinishlarini shakllantirish imkonini beradi.

Oliy ta'lim muassasasida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni shunday tashkil etilishi lozimki, bunda har bir talaba pedagogik jamoaning faol a'zosi sifatida boshqaruv va bo'ysunuv, tashabbus ko'rsatish hamda mas'uliyatni o'z zimmasiga olish tajribasini egallasin. Mazkur jarayon orqali bo'lajak pedagoglarda tashkiliy kompetentlik, pedagogik liderlik, ijtimoiy faollik va kasbiy mustaqillik shakllanadi. Ayniqsa, jamoa faoliyatida faol ishtirok etish, umumiy maqsadlarga sodiqlik, guruh manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'ya bilish ko'nikmalari pedagogik kongruentlikning ijtimoiy-axloqiy asoslarini mustahkamlaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarda kongruentlik kompetensiyasini rivojlantirishda pedagoglar va talabalar hamkorligiga asoslangan faoliyat alohida ahamiyatga ega. Pedagogik rahbarlik, mentorlik, tajribali ustozlarning metodik ko'magi, darslarni kuzatish, uslubiy ishlarda ishtirok etish va kasbiy tajriba almashinuvi bo'lajak pedagogning kasbiy moslashuvini jadallashtiradi. Shu bilan birga, pedagogika, psixologiya va yoshlar tarbiyasi metodikasi bo'yicha tizimli o'quv faoliyatini tashkil etish bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarning ichkilashtirilishi hamda pedagogik faoliyatda autentik pozitsiyaning shakllanishiga xizmat qiladi ^[2].

XULOSA

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarda kongruentlik kompetensiyasini rivojlantirish mazmuni pedagogning shaxsiy-kasbiy rivojlanishi, ma'naviy-axloqiy kamoloti, kasbiy odobi, refleksivligi, tashabbuskorligi, jamoaviy faoliyatga tayyorligi va uzluksiz o'zini rivojlantirish kabi komponentlarning integratsiyasi asosida namoyon bo'ladi. Mazkur jarayon bo'lajak pedagoglarda pedagogik faoliyatga nisbatan ongli munosabat, kasbiy mas'uliyat va ichki hamda tashqi uyg'unlikni shakllantirish orqali ularning professional tayyorgarligini yangi sifatcha bosqichiga olib chiqadi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qituvchining kongruentlik kompetensiyasi o'quvchilar shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va ta'lim muhitiga integratsiyalashuvida muhim psixologik-pedagogik omil hisoblanadi. Kongruentlik kompetensiyasi deganda o'qituvchining ichki his-tuyg'ulari, kasbiy qadriyatlari, fikrlashi va tashqi pedagogik xatti-harakatlari o'rtasidagi muvofiqlik, samimiylig hamda barqarorlik tushuniladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishning faol bosqichida bo'lib, u kattalar, ayniqsa, o'qituvchining xulq-atvori, emotsional munosabati va axloqiy pozitsiyalarini namuna sifatida qabul qiladi. Kongruent o'qituvchi o'z hissiyotlarini anglaydi, ularni vaziyatga mos ravishda boshqaradi hamda o'quvchilar bilan muloqotda ochiq, adolatli va izchil pozitsiyani namoyon etadi. Bunday pedagogik muhitda o'quvchida psixologik xavfsizlik, ishonch va o'z fikrini erkin ifoda etish imkoniyati yuzaga keladi. Natijada o'quvchining ichki kechinmalari, anglash jarayoni va tashqi xatti-harakatlari o'rtasida muvofiqlik shakllanib, uning kongruentligi rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Carl Rogers. On Becoming a Person: A Therapist's View of Psychotherapy. – Boston: Houghton Mifflin, 1961. – 420 p.
2. John Dewey. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916. – 434 p.
3. Lev Vygotsky. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
4. Aleksey Leontiev. Faoliyat. Ong. Shaxs. – Moskva: Politizdat, 1975. – 304 b.
5. Shalva Amonashvili. Pedagogik simfoniya. – Moskva: Prosvetsheniye, 1983. – 286 b.
6. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
7. Nikolay Muslimov. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2014. – 220 b.
8. Boris Gershunskiy. Filosofiya obrazovaniya dlya XXI veka. – Moskva: Pedagogicheskoye obshchestvo Rossii, 2002. – 512 s.
9. Vladimir Slastenin. Pedagogika: innovatsion faoliyat nazariyasi va amaliyoti. – Moskva: Magistr, 2013.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.